

XOJANING QOZI OBRAZINI YARATISH MAHORATI

*Guliston davlat universiteti adabiyotshunoslik
yo'nalishi 2 bosqich 4.24 guruh talabasi*

Himmatova Iroda

ANNOTATSIYA

Tadqiqotda qozi obrazining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda uning adabiy matnlardagi funksional xususiyatlari Xoja (Poshshoxo'ja) ijodi misolida tahlil qilinadi. Xoja nasriy asarlarida esa qozi obrazi real ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda, ko'proq tanqidiy ruhda tasvirlanishi ko'rsatib beriladi. "Miftoh ul-adl" va "Gulzor" asarlaridagi hikoyatlar asosida qozi obrazining poraxo'rlik, adolatsizlik va ikkiyuzlamachilik kabi illatlarni fosh etuvchi vosita sifatidagi o'rni yoritiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari o'zbek adabiyoti tarixi, adabiyotshunoslik nazariyasi hamda badiiy tahlil yo'nalishlarida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Xoja, obraz, hikoyat, o'zbek adabiyoti tarixi, adabiyotshunoslik, badiiy tahlil.

ANNOTATION

The research analyzes the formation, developmental stages, and functional characteristics of the qazi image in literary texts through the works of Poshshokhoja. The third chapter of the dissertation focuses on the representation of the qazi image in the prose works of Poshshokhoja, where it is depicted in close connection with the realities of the social environment and presented predominantly in a critical spirit. Based on the narratives contained in 'Miftoh ul-Adl' and 'Gulzor', the study elucidates the role of the qazi image as a literary device for exposing such social vices as corruption, injustice, and hypocrisy.

The findings of this research possess both theoretical and practical significance for the fields of Uzbek literary history, literary theory, and the methodology of literary analysis.

Keywords: Xoja, image, the store, history of Uzbek literature, literary studies, artistic analysis.

Poshshoxo'ja o'g'li Abduvahobxoja "Miftoh ul-adl" asarida qozi obrazini XVI asr jamiyatidagi huquqiy tanazzul va ijtimoiy adolatsizlikning markaziy timsoli sifatida gavdalantiradi. "Miftoh ul-adl" ("Odillik kaliti") asari o'zbek adabiyoti tarixida muhim o'rin egallaydi. U adabiyot va til yodgorligi sifatida jiddiy diqqatga sazovor bo'lgan asardir. "Miftoh ul-adl" XVI asrda yaratilgan va u "Gulzor" asarining muallifi Poshshoxo'ja Abdulvahobxoja o'g'li qalamiga mansubdir. "Miftoh ul-adl"ning muqaddimasidan ma'lum bo'lishicha, bu asar Shayboniyxonning o'g'li, shahzoda

Temurbekka bag‘ishlangan. “Gulzor”ga kiritilgan hikoyalar har jihatdan “Miftoh ul-adl”ning hikoyalariga tamomila muvofiqdir, ularni konkretlashtiradigan (aniqlashtiradigan) materiallardir.

“Gulzor” Poshshoxo‘ja Abdulvahhobxo‘ja tomonidan hijriy 945 (milodiy 1538–1539) yillarda yozilib, hokim Qora Bahodir Sulton ibn Jonibekka bag‘ishlangan. Bu ma’lumotlarning barchasi “Gulzor”ning muqaddimasida berilgan. Muallif unda bu asarni yozib tugatgan paytida 60 yoshda ekanligi, Balx shahrida yashaganligi haqida so‘zlaydi. Sharq an‘anasi (traditsiyasi) bo‘yicha, asarning oxiriga “Kitobning so‘nggi” deb qo‘yiladi. “Miftoh ul-adl”ning ko‘pgina nusxalari oxirida esa bu yozuv yo‘q va odatdagi “Bismillah...”dan keyin birdaniga “Gulzor” asari boshlanib ketaveradi. “Gulzor”ning so‘nggida esa “Kitobning so‘nggi” berilgan.

XVI asr o‘zbek adabiyoti va ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixida o‘ziga xos mavqega ega bo‘lgan mutafakkir adib Poshshoxo‘ja Abdulvahhobxo‘ja o‘g‘lining nodir merosi – “Miftoh ul-adl” hamda “Gulzor” asarlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, davr ijtimoiy voqeligi bilan aloqadorligi hamda o‘zbek adabiy tili tarixidagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Ma’lumki, mazkur ikki asar yaratilish va kompozitsion qurilish nuqtayi nazaridan o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, aksar manbalarda va qo‘lyozma nusxalarda bir muqova ostida yaxlit bir kitob shaklida jamlangandir. Har ikki asar ham yagona syujet chizig‘iga asoslanmagan, balki muayyan falsafiy-didaktik tezislar hamda ularning hayotiy isbotini ta’minlovchi xalq og‘zaki ijodidan olingan, qayta ishlangan ibratli hikoya va masallardan tashkil topgan novellalar to‘plami hisoblanadi.

Asarning vujudga kelish omillarini tushunish uchun u yaratilgan ijtimoiy-siyosiy muhitni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. XVI asrning birinchi yarmi Movarounnahr tarixida temuriylar saltanatining inqirozi va o‘rnini shayboniylar sulolasi egallashi bilan tavsiflanuvchi, ichki feodal urushlar, Eron safaviylari bosqini hamda hokimiyat uchun kurashlar avj olgan nihoyatda murakkab va ziddiyatli davr edi. Bunday parokandalik sharoitida hukmron ijtimoiy tabaqalar va diniy peshvolar mehnatkash xalq ommasini faqatgina iqtisodiy jihatdan ezibgina qolmay, balki ularni mafkuraviy jihatdan mutaasiblik va jaholat girdobida saqlashga intilganlar. Shunga qaramasdan, davrning umumiy tushkunlik manzarasi xalqning ijodiy va yaratuvchilik salohiyatini butunlay so‘ndira olmaganini Buxoro va Samarqanddagi Mir Arab, Masjidi Kalon kabi monumental me’morchilik obidalari hamda Olo Rizo va Shayxzoda Mahmud singari ijodkorlar shakllantirgan miniatyura rassomlik maktablarining yutuqlari yaqqol ko‘rsatadi. Mana shunday ijtimoiy-madaniy evrilishlar jarayonida shakllangan Poshshoxo‘ja dunyoqarashida ham jiddiy ziddiyatlar va ikkilanishlar ko‘zga tashlanadi. Adib bir tomondan feodal jamiyatning tabaqaviy asoslarini himoya qilish, sinfiy konfliktlarni silliqashtirish va mavjud tuzum barqarorligiga daxl qilayotgan kuchlarga yon bosish orqali kurash keskinligini

susaytirishga urinsa, ikkinchi tomondan, uning ijodida real insoniy baxtni, hayotbaxsh g'oyalarni ulug'lovchi optimistik kayfiyat yetakchilik qiladi.

“Miftoh ul-adl” asarining ma'naviy qiymati uning diniy-mistik qarashlarida emas, balki gumanistik va adolatparvarlik tamoyillari bilan sug'orilgan qatlamlarida namoyon bo'ladi. Muallif jamiyatdagi inson huquqlari poymol etilishi, despotizm va ijtimoiy adolatsizliklarni fosh etar ekan, an'anaviy Sharq didaktikasiga xos bo'lgan “odil shoh” konsepsiyasiga tayanadi; u jamiyat inqirozini butun bir tizimni o'zgartirish orqali emas, balki hukmdorlarni adolatga, insof va pand-u nasihatga chaqirish orqali bartaraf etish mumkinligiga ishonadi. Asarning eng katta badiiy yutug'i shundaki, hikoyalarning bosh qahramonlari sifatida oddiy xalq vakillari olingan bo'lib, ular irodali, vijdonli va dono shaxslar sifatida yovuzlik va nohaqlik qarshisida taslim bo'lmaydilar, balki faol harakat qilib o'z haq-huquq va manfaatlarini himoya qiladilar. Shuningdek, Poshshoxo'ja ijodiy metodida Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy va ayniqsa Alisher Navoiy an'analarning kuchli ta'siri seziladi; u buyuk salaflarining insonparvarlik g'oyalarini o'z asarlari vositasida xalq ommasi orasida targ'ib qilishga munosib hissa qo'shgan.

Asarning til xususiyatlari va uslubi tabiati o'zbek adabiy tili tarixini o'rganishda beqiyos ilmiy qimmatga egadir. “Miftoh ul-adl” o'z davrining dabdabali, og'ir va sun'iy sersaj' (qofiyali va og'ir so'zlardan iborat) formalistik bezaklaridan xoli bo'lib, nihoyatda ixcham, aniq va jonli xalq tilida bitilgan. Ushbu badiiy soddalik va ifoda ravonligi sababli asar yaratilganidan buyon necha asrlar o'tgan bo'lsa-da, o'zining o'qishli hamda estetik jozibasini yo'qotmay kelmoqda. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Poshshoxo'janing mazkur asarlari o'zbek adabiyoti, ijtimoiy ongi va tilshunosligi tarixida o'z davrining ijtimoiy ziddiyatlarini o'zida to'liq aks ettirgan, xalqchil qahramonlar obrazini yaratgan va gumanistik ideallarni ilgari surgan monumental adabiy va falsafiy yodgorlik sifatida baholanishi lozim.

Asarda muallif uchun qozi – shariat niqobi ostida zulm o'tkazuvchi va poraxo'rlikni (rishva) kasb qilgan tabaqaning umumlashtirilgan vakilidir. Asarda qozining “xoin”ligi va uning adolat tarozisini nafsga sotishi jamiyatning ma'naviy halokati sifatida quyidagicha fosh etiladi: “Emdi, ey sultonim, birovkim qozi bo'lub xoin bo'lsa, ertayu kech rishva olib o'lg'urg'on bo'lsa, oningdek kishi nechuk ont ichmas, tedi”. Ushbu parcha orqali Xoja qozining nafaqat o'z vazifasiga, balki ilohiy va insoniy qonunlarga ham xiyonat qilishini ta'kidlaydi. Shoir nazarida, zolim qozining hukmronligi jamiyatdagi barcha huquqiy va axloqiy me'yorlarni yo'qqa chiqaradi, hatto uning mahkamasi yoki hukmronlik doirasi shunday bir manhus joyki, u yerda adolat qatl etiladi: “Bir zolim qozining hukmxonasining eshikidin o'tsa, quli ozod bo'lmag'ay”.

Poshshoxo'ja qozilarning shariat homiysi ekanliklari haqidagi da'volarini quruq riyo deb biladi va ularni jamiyatni ichidan yemiruvchi ofat sifatida tasvirlaydi.

Muallifning ushbu ijtimoiy-tanqidiy talqini orqali qozi obrazi o'sha davrdagi ijtimoiy boshboshdoqlik va adliya tizimidagi inqirozning badiiy ko'zgusiga aylanadi.

Poshshoxo'ja "Miftoh ul-adl" asaridagi "Tolibul ilm va qozi" hikoyati orqali amonatga xiyonat qilish illatini qozilar tabaqasining ma'naviy chirishi darajasida tahlil qiladi. Bu yerda amonat motivi shunchaki moddiy boylik emas, balki jamiyatning sud tizimiga bo'lgan ishonchi ramzidir. Yigitning o'z halol mehnatidan orttirgan oltinlarini shariat homiysi sanalgan qoziga ishonib topshirishi va qozining bu ishonchni suiiste'mol qilishi ijtimoiy fojia sifatida talqin etiladi: "Ming qizil tilloni bir kissaiki ipakdan to'qulg'on erdi, ong'a solib qoziga olib borib amonat quydum, taqi ul kissaning og'ziga muhr ham qilib erdim... Uyga borib ushul kissani ochub ko'rsam mis tanga bo'lubdur".

Xoja ushbu voqeani tasvirlash orqali qozilarning nafs yo'lida har qanday tubanlikka tayyor ekanligini fosh etadi. Eng achinarlisi, qozi o'z jinoyatini yashirish uchun muqaddas tushunchalarni niqob qiladi va hatto yolg'on ont ichishdan ham qaytmaydi. Bu holat jamiyatda axloqiy mezonlarning qanchalik buzilganini ko'rsatadi: "Manga bir muhrlik kissa berding, oltinmu va yo boqirmu, bilmayman, muhrin sang'a buzmay berdim. Tilasang muhr buzib, olmog'onimga ont icharman tedi". Poshshoxo'ja bu parcha orqali qozining botiniy qorong'uligini va suvrat (tashqi ko'rinish) bilan ma'no (ichki dunyo) o'rtasidagi jarlikni ko'rsatadi. Qozi oltinni misga almashtirar ekan, u o'zining ma'naviyatini ham xuddi shu misdek qadrsizlantiradi. Muallifning ijtimoiy-tanqidiy xulosasi shundan iboratki, amonatga xiyonat qiluvchi qozi nafaqat shaxsiy gunohkor, balki butun jamiyat adolat poydevorini yemiruvchi xavfli unsirdir.

Poshshoxo'ja "Miftoh ul-adl" asarida qozining ma'naviy qiyofasini va ontiga sodiq emasligini ko'rsatish uchun "Laklak hikoyati" dan o'rinli foydalanadi. Hikoyatda tolibul ilm o'z oltinlarini o'g'irlab, ont ichmoqchi bo'lgan qozini laklakka qiyoslar ekan, uning dindorlik niqobi ostidagi yirtqich nafsini fosh etadi. Laklak o'z bolasini boqish uchun ilonlarni yemaslik haqidagi ontini qanday buzg'on bo'lsa, qozi ham rishva (pora) uchun shariat qonunlarini shunday buzadi. Asarda laklakning o'z jinoyatini muqaddas joy bilan oqlashi qozining munofiqligiga ramziy ishoradir: "Man doim minora ustida o'ltururman taqi minoradin turub masjidga songurman, gunohdin qo'rqmasman. Minora boshidin masjidga songurgon (nig) onti bo'lurmu, tedi. Emdi, ey sultonim, birovkim qozi bo'lub xoin bo'lsa, ertayu kech rishva olib o'lgurg'on bo'lsa, oningdek kishi nechuk ont ichmas, tedi". Ushbu timsol orqali Xoja ijtimoiy-tanqidiy bir haqiqatni ilgari suradi: muqaddas joyda o'tirish (masjid minorasi yoki qozi kursi) insonning pokligiga kafolat bo'la olmaydi. Aksincha, dindorlik niqobi ostida qilingan jinoyat va yolg'on ont jamiyat uchun eng xavfli ma'naviy tanazzuldir. Shoir qozining sallasi va mansabini laklakning baland minorasiga qiyoslar ekan, uning botiniy olami rishvaxorlik botqog'iga botganini badiiy jihatdan isbotlaydi. Tolibul ilmning bu ramziy qiyosi qozini nafaqat huquqiy, balki axloqiy jihatdan ham jamiyat

ko‘z o‘ngida sharmanda qiladi. Bu parcha XVI asr nasriy merosida qozi obrazining munofiqlik timsoli sifatidagi ijtimoiy-tanqidiy talqinining eng yuqori nuqtasi hisoblanadi.

Poshshoxo‘ja nasriy merosida qozi timsoli zohir (tashqi ko‘rinish) va botin (ichki dunyo) o‘rtasidagi keskin mutanosiblikning buzilishi orqali ijtimoiy-tanqidiy tahlil qilinadi. Muallif qozilarni tashqaridan dindor va ilmiy ko‘rinib, aslini olganda ma‘naviy qashshoq bo‘lgan suvrat ahli (faqat shaklga sig‘inuvchilar) toifasiga kiritadi. Ular haqiqiy ma‘nodan (ilohiy va insoniy haqiqatdan) butunlay uzilgan, faqat ijtimoiy mavqe va kiyim-bosh orqali o‘zlarini ulug‘ ko‘rsatishga intiluvchi kimsalar sifatida tasvirlanadi. Poshshoxo‘ja bu ziddiyatni ochib berishda quyidagi o‘tkir qiyosdan foydalanadi: “Bu zamon qozisining suvrati odamiyvas va ma‘nisi sarosar g‘ash. Sallasi – kibr doirasi va ridosi – riyo namoishi... Misedur, oltun bila ro‘kash, tashi xushnamo va ichi noxush”. Shoir nazarida, qoziningallasining haddan ziyod kattaligi uning ilmiy yuksakligiga emas, balki kibrining balandligiga dalolatdir. Bunday shaxslar uchun muqaddas libos va mansab kursi shunchaki munofiqlik va nafs hirsini yashiruvchi parda bo‘lib xizmat qiladi. Xoja ushbu talqin orqali jamiyatni boshqarayotgan yuqori tabaqaning ichki chirishini fosh etadi: Tashqi suvrat bu – tasbeh bezagi va tilning tinimsiz zikri. Ichki ma‘no bu – nafs bozori va oltin-dirham iliqidagi sargardonlik. Muallif ushbu qarama-qarshilikni quyidagicha xulosalaydi: “Tashi tasbeh bila bezalgan va tilida tinimsiz zikr, ammo ko‘ngli nafs bozorida tilla va dirham ilinjida sargardon”. Bu ijtimoiy-tanqidiy yondashuv orqali Poshshoxo‘ja kitobxonni insonning tashqi dabdabasiga emas, balki uning amaliy va botiniy ma‘naviyatiga qarab baho berishga, ya‘ni suvrat bandasi bo‘lmaslikka chorlaydi.

Poshshoxo‘ja “Miftoh ul-adl” asarida qozining amonatga xiyonat qilishini shunchaki oddiy o‘g‘rilik emas, balki puxta rejalashtirilgan, texnik jihatdan mukammal ijro etilgan professional jinoyat sifatida tasvirlaydi. Qozi oltinlarni olishda muhrga (seal) teginish xavfli ekanligini anglagan holda, xaltaning matosiga zarar yetkazish va so‘ngra uni ustalik bilan qayta tiklatish yo‘lini tanlaydi. Bu holat qozining jinoyat ustida ishlashdagi makkorligi va sovuqqonligini ko‘rsatadi: “Sulton fikr qildikim, ajab ermas, bu kissani teshub dog‘i to‘qatg‘on bo‘lsa deb gumon kildi”.

Jinoyatning professional darajasi shundaki, qozi o‘z qilmishini yashirish uchun begona hunarmandlarning mahoratidan foydalanadi. U xaltani teshib, oltinlarni misga almashtirgach, shahardagi eng mohir to‘quvchiga borib, xaltaning teshilgan joyini hech kim bilmaydigan darajada qayta to‘qitadi. Bu detal qozining o‘z mansabini saqlab qolish uchun har qanday hiylaga tayyor ekanligidan dalolat beradi: “Sulton aydi: uz boshing uchun aygil: qozi sang‘a hech kissa to‘qutturdimi? Ul aydi: ori” Poshshoxo‘ja ushbu professional hiylani batafsil bayon etish orqali qozining botiniy olami naqadar chiriganini ijtimoiy-tanqidiy nuqtayi nazardan fosh etadi. Qozining muhrni buzmasdan pulni almashtira olishi uning tashqi ko‘rinishdagi halollik va botiniy jinoyat o‘rtasidagi

farqni qanchalik ustalik bilan berkitishini ko'rsatadi. Bunday makkorlik jamiyat uchun oddiy o'g'rilikdan ko'ra xavfliroqdir, chunki u adolatning muqaddas ramzi sanalgan muhr (shariat hukmi) ostiga yashirilgan bo'ladi.

Poshshoxo'ja nasriy merosida poraxo'rlik (rishvaxorlik) shunchaki shaxsiy nuqson emas, balki shariat mezonlarini ildizi bilan yemiruvchi, jamiyatning ma'naviy ustunlarini ag'daruvchi eng og'ir jinoyat sifatida talqin qilinadi. Muallif "Miftoh ul-adl" asarida qozining shariat nomi bilan ish yuritib, aslida nafs amriga bo'ysunishini ilohiy nizomga xiyonat deb baholaydi. Qozilarning rishva evaziga haqni botilga, botilni esa haqqa aylantirishi jamiyatda adolat tushunchasining o'limiga sabab bo'ladi. Xoja poraxo'r qozining botiniy qiyofasini ochib berar eskan, uning dindorlik da'vosi va amali o'rtasidagi jarlikni quyidagicha fosh etadi: "Emdi, ey sultonim, birovkim qozi bo'lub xoin bo'lsa, ertayu kech rishva olib o'lgurg'on bo'lsa, oningdek kishi nechuk ont ichmas, tedi".

Ushbu ijtimoiy-tanqidiy qarash poraxo'rlikning nafaqat huquqiy, balki o'ta og'ir ma'naviy oqibatlarini ham qamrab oladi. Muallif ta'kidlashicha, pora olgan qozining ko'ngli shunchalik qoralashadiki, u hatto o'lim to'shagida ham imon nuri bilan yuzlasha olmaydi. "Miftoh ul-adl"da keltirilgan hikoyatda poraxo'r qozining fojiali yakuni shariat mezonlari asosida quyidagicha bayon etilgan: "Kisob ichinda o'zrubmankim, qozi rishva olsa, imon keltursa o'lmas. Taki ul xastalikdan o'lmay turdi. Ondin sung bir sharob ichib, otga minib borur erkan, oti urkub, ko'tarib yerga urmish, ul taqi o'lmish. Ul qozi bu dunyodin imonsiz kemish".

Xoja bu voqealar orqali qozilik mansabini poraxo'rlik bilan bulg'agan kimsaning imonsiz ketishi muqarrar ekanligini uqtiradi. Bu esa shariat qonunlarining rishva bilan to'qnashuvidagi eng oliy jazo sifatida tasvirlanadi. Poshshoxo'ja jamiyatdagi barcha tabaqalarni, ayniqsa hukmdorlarni bu toifadan ogoh bo'lishga chaqiradi, chunki poraxo'r qozi nafaqat o'zini, balki butun jamiyatni halokatga yetaklaydi. Bundan tashqari, muallif qozining poraga sotilgan vijdonini hatto tabiat va yer ham qabul qilmasligi haqidagi ramziy g'oyani ilgari suradi. Ali (r.a.) hikoyatida keltirilgan quyidagi parcha rishvaxor qoziga nisbatan ijtimoiy va ilohiy nafratning eng yuqori ifodasidir: "Ey yer, bu yil ham hosil bermasang, bir zolim qozi o'lgan bo'lsa, slikini kelturub saning o'rtangda ko'marman, degan xat erkan. Emdi mundin ma'lum bo'ldikim, qozilarni yer ham qabul kilmas erkan, aning azobidin qo'rqor..."

Poshshoxo'ja "Miftoh ul-adl" asarida amalsiz olim fojeasini jamiyatdagi eng katta ma'naviy xatar sifatida talqin qiladi. Muallif nazarida, qozi obrazi ushbu fojeaning tirik timsolidir; chunki qozi shariat qonunlarini mukammal bilsa-da, uning amali (poraxo'rliqi, xiyonati) bu ilmga mutlaqo zid keladi. Xoja bunday shaxslarni mevasiz daraxtga yoki o'zi yonib bitadigan, biroq ma'naviy nuri yo'q chiroqqa qiyoslaydi: "Olimki, ilmi bor-u amali yo'q – mevasi yo'q daraxtdek dur yoki chirog'durki, o'zi yonib tugaydur, ammo elga foyda berur". Ushbu ijtimoiy-tanqidiy

qarash orqali Poshshoxo‘ja qozining fojiasini ochib beradi: uning ilmi borligi uning aybini yengillatmaydi, aksincha, haqiqatni bila turib unga xiyonat qilgani uchun javobgarligini oshiradi. Asarda tolibul ilm (talaba) o‘z ilmini dunyo matohiga almashtirgan qozidan nafratlanishi va uning mansabidan qochishi qozi xarakterining jamiyat ko‘z o‘ngida qanchalik tubanlashganini ko‘rsatadi: “Emdi san tilarsankiim, man qozi bo‘lsam, taqi o‘lsam, imonsiz ketsam, tedi”.

Poshshoxo‘ja qozini suvratda olim bo‘lsa-da, ma’noda johil deb baholaydi. Uning uchun qozilik mansabi ilm egasini sinovchi o‘tkir tarozi bo‘lib, amalsiz olim ushbu sinovda o‘z imonini poraga almashtiradi. Muallif jamiyatning ma’naviy islohoti uchun avvalo ilmi tabaqa, xususan qozilar o‘z ilmiga muvofiq amal qilishi shartligini qat’iy talab sifatida ilgari suradi. Amalsiz olim – qiyomatda ham, insonlar nazarida ham “rasvo” bo‘lishga mahkumdur.

Poshshoxo‘ja XVI asr ijtimoiy voqeligidagi qozilarning ma’naviy inqirozini tasvirlashda o‘ta keskin ramziy-hajviy usullardan foydalanadi. Muallif qozilik mansabini poraxo‘rlik va zulm bilan bulg‘agan kimsalarni kamsitish uchun sharq adabiyoti an’anasida odatda “past” hisoblangan hayvon timsolini qozidan ustun qo‘yadi. Bu orqali qozining ma’naviy darajasi hatto hayvonnikidan ham tubanroq ekanligi ijtimoiy-tanqidiy nuqtayi nazardan ko‘rsatib beriladi. Asarda bu ramziy hajv quyidagicha ifodalangan: “Taqi aytibdurlarkim, it har tunda aytur ermish: ollo taologa shukurkim, mani qozi qilimay, it qilibturur”. Ushbu parcha qozining jamiyatdagi ma’naviy tanazzulini eng o‘tkir shaklda ifodalaydi. Itning o‘z holidan shukrona aytishi – qozilik mansabining og‘ir gunoh va rishvaxorlik botqog‘i ekanligiga ishoradir. Poshshoxo‘ja bu orqali shuni uqtiradiki, vijdotsiz va poraxo‘r qozi bo‘lib, xalqning haqqini yeb yashashdan ko‘ra, hayvon bo‘lib qolish ma’naviy jihatdan “tinchroq” sanaladi, chunki hayvonda qiyomatdagi og‘ir so‘roq va “imonsiz ketish” xavfi yo‘q. Xoja ushbu kamsitish orqali qozilar tabaqasiga nisbatan jamiyatda shakllangan nafratni umumlashtiradi. Poraxo‘r qozi o‘z qilmishi bilan insonlik martabasidan shunchalik uzoqlashadiki, hatto hayvon ham u kabi bo‘lishni istamaydi. Ushbu ramziy hajv XVI asr nasriy merosida adolatni sotgan mansabdorlarga nisbatan bildirilgan eng keskin ijtimoiy-tanqidiy hukmlardan biri hisoblanadi.

Xulosalar:

1. Poshshoxo‘ja o‘z asarlarida qozi obrazini XVI asr jamiyatidagi huquqiy tanazzul va ijtimoiy adolatsizlikning markaziy timsoli sifatida gavdalantiradi. Muallif qozini shariat niqobi ostida zulm o‘tkazuvchi va poraxo‘rlikni kasb qilgan tabaqa vakili deb biladi.

2. “Tolibul ilm va qozi” hikoyati orqali qozilarning nafs yo‘lida hatto amonatga xiyonat qilishi fosh etiladi. Bu holat jamiyatning sud tizimiga bo‘lgan ishonchi yo‘qolishini anglatuvchi ijtimoiy fojia sifatida talqin qilinadi.

3. Hujjatda qozining oltinlarni misga almashtirishi shunchaki o'g'rilik emas, balki muhrni buzmasdan amalga oshirilgan, puxta rejalashtirilgan professional jinoyat sifatida ta'riflanadi. Rishvaxorlik shariat mezonlarini yemiruvchi og'ir jinoyat deb baholanadi. Poshshoxo'ja poraxo'r qozining oxiratda "imonsiz ketishi" muqarrarligini uqtiradi.

4. Qozilarning ma'naviy tanazzuli shunchalik keskin tasvirlanadiki, hatto itning o'z holidan (qozi bo'lmaganidan) shukrona aytishi orqali qozining darajasi hayvonnikidan ham tubanroq ekani ko'rsatiladi.

5. Poshshoxo'ja falsafasi bo'yicha zolim qozining zulmi tabiat muvozanatiga ham daxl qiladi. Ramziy hikoyatda keltirilishicha, hatto yer ham zolim qozining murdasini qabul qilishdan qo'rqadi va undan nafratlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Poshshoxo'ja. "Miftoh ul-adl" va "Gulzor"dan. Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. – T.: 1962. – 120 b.
2. 40 b. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O'zbekiston, 2001. – 640 b.
3. Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. – T.: O'qituvchi, 1996. – 344 b.
4. Fitrat. Tanlangan asarlar. 5 jildlik. 2-jild. – T.: Ma'naviyat, 2000. – 280 b.
5. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq, 1999. – 2
6. Ishoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. – T.: O'zbekiston, 2006. – 451 b.
7. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 1980. 486 b.